

## MUSTAQILLIK DAVRIDA XALQ OG'ZAKI IJODINING DAVLAT MAQOMIGA ERISHISHI

**Ruxshona Murodillayeva Zokirxon qizi**

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti*

[murodillayevaruxshona@gmail.com](mailto:murodillayevaruxshona@gmail.com)

**Annotatsiya:** *O'zbekiston mustaqillikka erishgach, xalq og'zaki ijodi(folklor)ning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy qadri qayta baholanishi, davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanishi va rivojlantirilishini tahlil qilish. Maqolada folklor merosini asrash, tadqiq etish va ommalashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlar, dasturlar hamda xalqaro miqyosdagi e'tiroflar misolida tahlil keltirilgan.*

*After the Republic of Uzbekistan gained independence, the article aims to study the social, cultural and governmental significance of folk oral creativity and to analyze the process of its recognition as a national value. The paper presents an analysis of the reforms, programs, and international acknowledgments implemented for the preservation, research and popularization of the folklore heritage.*

*После обретения независимости Республики Узбекистан статья направлена на изучение социального, культурного и государственного значения устного народного творчества, а также на анализ процесса его признания в качестве национальной ценности. В работе рассматриваются проведенные реформы, программы и примеры международного признания, направленные на сохранение, исследование и популяризацию фольклорного наследия.*

**Kalit so'zlar:** *xalq og'zaki ijodi, mustaqillik davri, rivojlantirish, "Alpomish" dostoni, Islom Karimov, o'zbek, doston, maqomga*

**Kirish.** Yurtimiz mustaqil respublika sifatida shakllanib rivoj topayotganiga 34 yil bo'ldi. O'tgan muddat davomida xalq xo'jaligining hamma sohalarida, shu jumladan, adabiyotshunoslikda ham keskin sifat o'zgarishlari ro'y berdi. O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlarini nashr qilish, ularning tariximiz va bugungi kunimizdagi ahamiyatini anglashdagi ijobiy o'zgarishlar tashabbuskori yurtboshimiz Islom Karimov bo'ldi. 1990-yilda, hali mustaqillik qo'lga kiritilmasdan avval taqiqlangan Navro'z bayrami umumxalq tantanasi darajasida nishonlandi. Keyinchalik "Alpomish" dostonining 1000 yillik to'yi tantana qilindi. Xalq og'zaki ijodi ota-bobolarimizning aytmoqchi bo'lgan pand-nasihatlar, el e'zozlagan odam bo'lishning talab-qoidalari, yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlar, milliy fazilatlarimiz haqida san'at darajasiga ko'tarilgan so'z tizimlaridan iborat maqol, qo'shiq, ertak, doston, bolalarga bag'ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarni o'zida ifoda etadi. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo'lgan. Xalq og'zaki ijodi ilmda folklor deb yuritiladi. Bu atamani 1846-yilda ingliz olimi UilyamToms taklif qilgan bo'lib, uning ma'nosi "xalq donoligi" degan tushunchadan iborat.

Sobiq sho'ro tuzumi sharoitida xalq bayrami - Navro'z, "Alpomish", "Ravshan" dostonlarimiz taqiqga uchragan. Folklorlar ekspeditsiyasiga xalq og'zaki ijodi asarlarini yozib olish maqsadida chiqishganida, islom diniga oid asarlarni yozib olish ma'qul ko'rilmay edi. Bu harakatlarning hammasi og'zaki adabiyotimizni yo'q qilish niyatini amalga oshirish choralari edi. 1991-yil 1-sentyabrda O'zbekiston mustaqil respublika deb e'lon qilindi. Dunyo ilmi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan buyuk allomalarimiz nomlari, ularning kashfiyotlari haqidagi ma'lumotlar qatori turli munosabatlar bilan urf-odatlar, rasm-rusumlar ham tilga olinib boshlandi. Aslida, o'zbeklarning dunyoda ilg'or madaniyatga ega bo'lgan xalq ekanligini tasdiqlovchi fikrlar mustabid tuzum paytida ham aytilgan. Ammo bunday hur gaplarning mualliflari qatag'on qilingan edilar. Ularning ko'pchiligi sirli vaziyatlarda hayotdan ko'z yumdilar. Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy, Otajon Hoshim, Sulaymon Xo'ja va boshqalar esa o'ylab topilgan yolg'on jinoyatlarda ayblanib qoldilar. Ammo erkinlikni, o'tmishdagi xalq allomalarining kashfiyotlarini targ'ib etuvchi asarlar tizimi murakkab vaziyatda ham to'xtab qolmadi. XX asrning 60-70-yillari adabiy hayotiga yosh ijodkorlar sifatida kirib kelgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi shoirlar "O'zbekim", "O'zbekiston" kabi poetik asarlari bilan yurtimizga komil ishonch olib kirdilar. Xalqimizning haqiqiy farzandlari sa'y-harakati bilan "Xalq og'zaki ijodi" turkumida "Alpomish" dostoni, Ergash Jumanbulbul, Fozil shoir, Po'ltan, Islom shoir, Bola baxshi ijro etgan epos namunalari, xalq qo'shiqlari, ertaklari, aksiya, latifa, topishmoqlarning nashr qilinishi nur ustiga nur bo'ldi.

O'tgan asrlarning 50-yillarida Ibrohim Mo'minov, Vohid Zohidov, Hodi Zarif kabi taniqli ziyolilar turli sabab va vajlar bilan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t -turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Navoiyning "Xamsa", Boburning "Boburnoma" kabi bir qator asarlarini nashrga tayyorladilar va chop etdilar.

Mustaqillik, umuman, xalq qadriyatlariga, xususan, xalq og'zaki ijodiga bo'lgan munosabatda keskin ijobiy o'zgarish yasadi. Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston buyuk kelajak sari" asaridagi "Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari" deb atalgan bo'limida: "O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi", - deyilgan.

1998-yilda Fozil Yo'ldosh ijro etgan "Alpomish" dostonining to'liq matni "Sharq" nashriyot - matbaa konserni Bosh tahririyati tomonidan nashr ettirildi. 1999-yil 9-noyabr kuni esa "Alpomish" ning ming yillik to'yi nishonlandi. Yurtboshimiz "Alpomish" dostoni haqida ibratli xulosaga keladi va aytadiki: "Demak, xalqimiz bor ekan, - deydi u, - "Alpomish" dostoni ham barhayot". Shu bilan birga "O'zbekiston xalq baxshisi" unvoni ta'sis etilishi, "Boysun bahori" bayramlarining o'tkazilishi o'zbek xalqi o'tmishi bilan bugungi kunini bog'lovchi o'ziga xos ko'pri bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa o'rinda xalqimiz og'zaki ijodining davlat maqomida e'zozlanishini O'zbekistonning mustaqillikka erishishining ijobiy natijasi sifatida baholash mumkin. Yurtimiz barkamol avlodini xalq og'zaki ijodidan mukammal ma'lumotga ega bo'lmagan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki og'zaki ijod dostonlarida vatanga xiyonat qilgandan ko'ra o'limni afzal bilgan Ravshan, butun harakatini parchalagan yurtini birlashtirishga bag'ishlagan Alpomish, o'z Vatanini ichki

va tashqi dushmanlardanb himoya qilgan Go'ro'g'li, oilasini muqaddas bilgan Kuntug'mish madh etiladi. O'zbekning butun fazilati, falsafasi, donoligi, dunyoqarashi, oily himmatliligi, turli hayotiy vaziyatlarga munosabati maqollarda aks etgan. Insondagi mehnatga muhabbat, ishq tuyg'ulari qo'shiqlarda eng oliy ichki kechinmalar sifatida ifodalangan. Ertaklarda xalqimizning eng oliy orzu-havaslarini namoyon bo'ladi. Ular bilan tanishgan yosh avlod o'zbek uchun vatan, xalq, oila, mehnat, ilm, g'urur naqadar muqaddas tushunchalar ekanini anglab yetadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbek Xalq Og'zaki Ijodi – Omonulla Madayev: 2010
2. Islom Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori: 1997
3. Islom Karimov. "Alpomish" dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimida so'zlagan nutqi – 1999, 9-noyabr
4. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2008